

INNOVATSION TA’LIM MUHITI VA SHAXSNING RUHIY RIVOJLANISHI

Andijon davlat pedagogika instituti
o‘qituvchisi Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna

Andijon davlat pedagogika instituti
pedagogika fakulteti,
boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi
talabasi Abduraximova Mexrinigor Azamat qizi
mexrinigor231@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19410776>

Annotatsiya: XXI asrda ta’lim sohasi nafaqat bilim berish, balki insonni har tomonlama rivojlantirish, uning ijodiy va intellektual salohiyatini ochib berish vositasiga aylanmoqda. Globallasuv, raqamli texnologiyalarning kirib kelishi, sun‘iy intellekt, robototexnika kabi yutuqlar maktab va oliy ta’lim tizimlaridan ham moslashuvchanlikni talab etmoqda. Ushbu maqolada innovatsion ta’lim muhiti va shaxsning ruhiy rivojlanishi haqida so‘z yuritiladi.

Kalit so‘zlar: innovatsiya, innovatsion ta’lim, texnologiya, shaxsiy rivojlanish, kreativlik, psixologik tahlil.

Abstract: In the 21st century, education is becoming not only a means of imparting knowledge, but also a means of comprehensive development of a person, revealing his creative and intellectual potential. Globalization, the introduction of digital technologies, artificial intelligence, robotics, etc., require flexibility from school and higher education systems. This article discusses the innovative educational environment and the spiritual development of the individual.

Keywords: innovation, innovative education, technology, personal development, creativity, psychological analysis.

Аннотация: В XXI веке образование становится не только средством передачи знаний, но и средством всестороннего развития личности, раскрывающим её творческий и интеллектуальный потенциал. Глобализация, внедрение цифровых технологий, искусственного интеллекта, робототехники и т. д. требуют гибкости от школьной и высшей системы образования. В данной статье рассматриваются инновационная образовательная среда и духовное развитие личности.

Ключевые слова: инновации, инновационное образование, технологии, личностное развитие, креативность, психологический анализ.

Kirish. Innovatsiya (lot. innovatio—yangilash, o‘zgartirish) mavjud tizim, jarayon yoki faoliyatni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqishga qaratilgan yangilikni yaratish, joriy etish va amaliyotda qo‘llash jarayonini ifodalovchi atama hisoblanadi. Innovatsion ta’lim muhiti tushunchasi raqamli va axborot texnologiyalariga asoslangan; talabning mustaqil va ijodiy faoliyatini rag‘batlantiruvchi; o‘qituvchi va talaba o‘rtasida hamkorlikka yo‘naltirilgan ta’lim tizimidir.

“Yangi O‘zbekistonni barpo etish yo‘lida eng katta boyligimiz bilimli, tafakkuri keng, zamonaviy fikrlaydigan yoshlarimizdir. Buning uchun ta’lim tizimini innovatsion yondashuvlar asosida rivojlantirish zarur”[1.Shavkat Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.]

Innovatsion ta’lim muhiti — bu o’quvchi va pedagog o’rtasida ochiq muloqotga asoslangan, texnologiyalarga tayangan, shaxsiy rivojlanishga yo’naltirilgan muhitdir. Bunday muhitda o’qituvchining kreativligi markaziy o’rinni egallaydi.

Innovatsion ta’lim muhiti sharoitida o’qituvchining kreativligi ta’lim sifatini oshirishda hal qiluvchi omillardan biridir. Kreativ pedagog — bu yangilikka ochiq, o’quvchilarning individual salohiyatini ko’ra oladigan va har bir darsda ijodiy yondashuvni tanlaydigan shaxsdir. Bunday o’qituvchilar ta’limni faqat bilim berish emas, balki tarbiya, ilhom va kelajak uchun tayyorgarlik jarayoniga aylantiradi. Shu bois, o’qituvchilarning kreativ salohiyatini rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko’tarilishi muhim vazifa bo’lib qoladi.

Jahon miqyosida bugungi globallashuv va raqamli sharoitda ta’lim tizimida innovatsion muhitini shakllantirish butun dunyo miqyosida eng muhim masalalardan biriga aylangan. Raqamli texnologiyalar, sun’iy intellekt, masofaviy ta’lim platformalari va virtual o’quv muhiti ta’lim jarayonining ajralmas qismiga aylangani sababli, talabalar nafaqat bilim olish, balki innovatsion muhitda psixologik va ijtimoiy moslashish ko’nikmalariga ega bo’lishlari zarur.

Jahondagi bir qator davlatlar AQSh, Yaponiya, Janubiy Koreya, Germaniya, Finlandiya kabi davlatlarda o’tkazilgan tadqiqotlarda ta’lim muhitining innovatsionligi talabalarning ijodiy fikrlash, moslashuvchan tafakkur, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati va psixologik barqarorlik darajasiga bevosita ta’sir etishi aniqlangan. Shu bois, xorijiy oliy ta’lim muassasalari talabalarni nafaqat kasbiy, balki psixologik jihatdan innovatsion o’zgarishlarga tayyorlash konsepsiyasini amaliyotga keng tatbiq etmoqda. Respublikamizda yaratilayotgan sharoitlar talabalar zamonaviy texnologiyalar, interaktiv o’quv tizimlari va raqamli platformalarda faol ishlashi, yangi ta’lim modeliga ijtimoiy-psixologik jihatdan moslashishi uchun zarur bo’ladi.

Shaxs rivojlanishi bolaning tug’ilishidan to keksalikkacha bo’lgan davrni qamrab oladi va bu jarayonda biologik, ijtimoiy va psixologik omillar o’zaro ta’sirda bo’ladi. Psixologlar ushbu rivojlanish jarayonini turli modellarda tasvirlashgan. 3–6 yosh oralig’ida bola faol tashabbus ko’rsata boshlaydi. Agar atrofdagilar uni qo’llab-quvvatlasa, unda tashabbuskorlik kuchayadi. Aks holda esa aybdorlik hissi paydo bo’ladi. 6–12 yoshda bolaning mehnatsevarlik hissi ortadi, u o’zini foydali deb his qilishi muhim. Agar bola bu davrda o’zini ojiz his qilsa, bu uni psixologik jihatdan past his qilishiga olib keladi.

Shaxs rivojlanishining psixologik tahlili qadimiy falsafiy qarashlardan boshlab zamonaviy fan nuqtayi nazarigacha rivojlanib kelgan. Jumladan, Aristotel va Ibn Sino inson taraqqiyotini tabiiy bosqichlar asosida tahlil qilgan bo’lsa, yangi davrda G. Spenser, S. Xoll, J. Lokk va I. Kant shaxsning o’sishi va shakllanishini individual tajriba va ijtimoiy muhit bilan bog’lashgan. XX asr psixologiyasida esa shaxs rivojlanishiga oid keng ko’lamli nazariyalar paydo bo’ldi. Ulardan eng mashhurlari — Erik Eriksonning psixosozial rivojlanish nazariyasi va Jan Piajening kognitiv rivojlanish nazariyasidir. Eriksonga ko’ra, shaxs rivojlanishi sakkiz bosqichdan iborat bo’lib, har bir bosqichda inson ma’lum psixosozial inqiroz bilan duch keladi. Bu inqirozlar muvaffaqiyatli yengib o’tilsa, insonning psixik holati va ijtimoiy moslashuvi yanada barqarorlashadi.

Xulosa. Yoshlarning ijtimoiy intellekti tabiatini tadqiq etish, ilmiy jihatdan chuqur tahlil qilish bugungi kun talabi bo’lib, barkamol avlod tarbiyasi, uning intellektual salohiyatini oshirish va kasbiy shakllanishida ijtimoiy intellektni aniqlash usullarini chuqur o’rganish va dinamikasining xususiyatlarini tahlil etish muhimdir. Yoshlarning shaxslararo munosabatlarida intellektual qobiliyatlari birligida ijtimoiy muhit, suhbatdoshlarning xatti-harakatlari, shaxsiy fazilatlarini, kechinmalarini baholash imkoniyatlari qonuniyat jihatidan mustahkam bog’liqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Shavkat Mirziyoyev. “Yangi O‘zbekiston strategiyasi”. – Toshkent: O‘zbekiston, 2021.

- 2.E. G’oziyev, Usmanova Sh. Intellekt psixologiyasi. T.: «Fan», 1996. -81-98
- 3.Jalolov J.J. Pedagogik innovatsiyalar va kreativ yondashuvlar. T.: Fan va texnologiya, 2022.
- 4.Karimova N. Innovatsion ta’lim muhitining psixologik asoslari. Samarqand: Zarafshon, 2021.
- 5.Saidova G. Kreativlik va innovatsiya: pedagogik tahlil. Ijtimoiy fanlar jurnali, 2023.
- 6.Xudoyberdiyeva, D.X. Umumiy psixologiya. Toshkent: O‘zbekiston Milliy ensiklopediyasi, 2020.
7. Alisherova Zulfiya Tolibdjanovna. (2025). THE IMPORTANCE OF EMOTIONAL INTELLIGENCE IN THE DEVELOPMENT OF SOCIO-PSYCHOLOGICAL ADAPTATION OF ADOLESCENTS. *Best Journal of Innovation in Science, Research and Development*, 4(6), 148–150.